

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA`LIM, FAN VA INNOVASIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN TO`QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI



“TASDIQLAYMAN”

NamTSI rektori

Q.M. Xoliqov

30. 08. 2023 y.

TIKUV BUYUMLARINI KONSTRUKSIYALASH

FAN DASTURI

Bilim sohasi:	700000-	Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari
Ta`lim sohasi:	720000-	Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari
Ta`lim yo`nalishlari:	60721200	Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (tikuv buyumlari texnologiyasi)

Namangan-2023

Fan / modul kodi TBK 1630		O'quv yili 2023_-2024 2024-2025_	Semester 5, 6, 7, 8	Kreditlar 8,8, 8, 6
Fan / modul turi majburiy		Ta'lim tili O'zbek	Haftadagi dars soatlari	
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Tikuv buyumlarini konstruksiyalash	136	764	900
2	I.Fanning mazmuni: Fanni o'qitishdan maqsad – material xossalari, moda yo'nalishi, kostyum kompozitsiyasi asoslariga mos ravishda, ishlab chiqarish sharoitlarini hisobga olgan holda, turli shakl, bichim, siluetdagi kiyim modellarini loyihalashning zamonaviy va istiqbolli usullarini egallash uchun nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat Fanning vazifasi – fan va texnika yutuqlaridan foydalanib yangi kiyim modellarini sanoat sharoitida loyihalash, iste'molchi va ishlab chiqarish talablarini hisobga olgan holda turli materiallardan yelkali va bel kiyim konstruksiyasini ishlab chiqish, model eskizlarini tahlil qila olish va konstruktiv modellashning ratsional usullaridan foydalanish bo'yicha olgan nazariy va amaliy bilimlarini kurs, diplom loyihalarini bajarish va real sharoitga qo'llash bo'yicha ko'nikmalar hosil qilishdir. II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari): Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi 1-MODUL 1-mavzu. Kirish. "Tikuv buyumlarini konstruksiyalash" fanining maqsad va vazifalari "Tikuv buyumlarini konstruksiyalash" fanining mazmuni, predmeti va metodi. 2-mavzu. Zamonaviy kiyim assortimenti va tavsifi. Kiyim haqida umumiy ma'lumotlar Kiyim to'g'risida asosiy tushunchalar. Kiyim funktsiyasi. Zamonaviy kiyim assortimenti va tasnifi. Mahsulot klassifikatorida tikuv buyumlarining tasnifi va kodlanishi. Sanoat manekenlari nomenklaturasi. 3-mavzu. Sifat ko'rsatkichlari va kiyimlarga qo'yiladigan talablar. Sifat ko'rsatkichlari haqida tushuncha. Iste'molcha va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar. Kiyimga qo'yiladigan talablar. 4-mavzu. Aholi razmer tipologiyasi va razmer standartlari. Tananing o'lcham belgilarini olish uslubi. O'lchamlar hili va dasturi. O'lchash usullari. Odam tanasining o'lchami tavsifi. Yetakchi razmer o'lchovlari. Farqsizlik intervali. Zamonaviy razmerli tipologiya va katta yoshdagi aholiga mansub razmerli standartlar. Tipaviy qomatlar tizimini tuzish asoslari. Kiyim razmerlarini belgilash. Bolalar razmerli tipologiyasini tuzish xususiyatlari.			

2-MODUL

1-mavzu. Turli zamonaviy kiyimlar konstruktiv tuzilishi va tashqi shakl xarakteristikasi

Kiyim asosiy silueti va bichimlari. Kiyim yuzasining tipaviy bo'laklanishi. Kiyim bichimi. Kiyim konstruksiyasini aniqlovchi asosiy belgilar.

2-mavzu. Kiyim razmerlari, shakli va konstruksiyasi. Kiyimdagi qo'shimchalar

“Odam-kiyim-muhit” sistemasi haqida tushuncha. Kiyimning shakli va ichki razmerlari. Kiyimni ichki razmerlari va odam tanasi tashqi razmerlari orasidagi mutanosiblik. Kiyim shaklini hosil qilish vositalari. Kiyimda qo'shimchalar. Bemalollik qo'shimchalari. Tana o'lchamlarining dinamikada o'zgarishini e'tiborga olgan holda minimal kerak bo'lgan qo'shimchalarni hisoblash prinsplari. Kiyim paketiga, material qalinligiga qo'shimchalar. Kompozitsion qo'shimchalar.

3-mavzu. Kiyim konstruksiyalash usullari

Kiyimlarni konstruksiyalash usullarining sinflanishi va ularning xarakteristikasi. Bazis to'ri tushunchasi. Turli kiyimlar uchun asos konstruksiyalar, ularni hisoblash usullari. YEMKO bo'yicha kiyimlarni konstruksiyalash xususiyatlari. Turli bichimdagi kiyimlarni konstruksiyalash. Kiyim balansi. Turli yoqalarning konstruksiyasini tuzish xususiyatlari. O'tkazma yenglarning shakli, konstruksiyasi va konstruksiyalash usullari xarakteristikasi.

3-MODUL

1-mavzu. Bel kiyimlari va yelka kiyimlarini konstruksiyalash xususiyatlari.

Bel kiyimlariga qo'yiladigan talablar. Bel kiyimlari uchun bazis to'rini qurish. To'g'ri yubka konstruksiyasini qurish. Shim konstruksiyasini qurish usullari. Yelka kiyimlarini konstruksiyalashda dastlabki ma'lumotlar. Ayollar va erkaklar kiyimi uchun baza to'rini qurish.

2-mavzu. Kiyim nuqsonlari

Kiyim nuqsonlarining sinflanishi. Konstruktiv nuqsonlar. Modellashdagi texnologik nuqsonlar. Konstruktiv nuqsonlarning paydo bo'lish sabablari. Konstruktiv nuqsonlarni tuzatish usullari.

3-mavzu. Kiyimlarni konstruktiv modellashning umumiy prinsplari

Konstruktiv modellash (KM) uchun dastlabki ma'lumotlarni tayyorlash. Bazali konstruksiyani tanlash mezonlari. Bazaviy konstruksiya (BK) dan foydalanib KM ning 4 xil asosiy turlari.

4-mavzu. BK shaklini o'zgartirmay KM usullari

BK shaklini o'zgartirmay yubka va shimni KM, yelkali kiyimlarni KM elementlari: vitochka ko'chirish, taxlama va taqilmalar, bo'yin o'mizining shakli, cho'ntak, lifni qo'shimcha bo'laklash.

4-MODUL

1-mavzu. BK shaklini o'zgartirib KM usullari

Kiyim detallarini konus va parallel kengaytirish. Turli shakldagi yubkalarni modellash. O'tqazma yenglarni KM, yeng uchi kengligini o'zgartirish, yengni konus va parallel kengaytirish. Vitochkani qayta modellash. Yelka qismi va yeng o'mizini modellash:

	kengaytirish, turli shakldagi yeng oʻmizlarini (chuqur, tor, kengaygan, tirqishsimon, kvadrat) modellash. Turli shakldagi oʻtqazma yenglarni modellash va uni modellashtirilgan oʻmiz bilan muvofiqlash. 2-mavzu. Turli shakl va modeldagi yoqalarni konstruksiyalash. Boʻyin oʻmizini konstruktiv modellash. Yoqalarga qoʻyiladigan talablar. Yoqalarni sinflanishi. Tik yoqa turlarini konstruksiyalash. Qaytarma yoqalarni qurish va KM. Ochiq boʻyin oʻmiz uchun pidjak, shol va boshqa tipdagi yoqalarni qurish. Boʻyin oʻmizini bezash elementlari (kokile, jabo, pelerina va.h.k). Kopyushonni konstruksiyasini qurish 3-mavzu. Andozalar chizmalarini tayyorlash asoslari Kiyim detallari andozalarini ishlab chiqish tartibi. Andoza turlari. Kiyim detallari andozalarini ishlab chiqish uchun dastlabki maʼlumotlar: kiyim model konstruksiyasi, texnologik qoʻshimchalar kiritilgan yigʻma chizmalar, kiyim paketi materiallari xarakteristiasi va xossalari. Andoza konturlarini texnologik ishlov berishga qulaylik talabi bilan tekshirish. Hosila va yordamchi andozalarga qoʻyiladigan konstruktiv va texnologik talablar. Astar va qotirma materiallardan bichiladigan ayrim hosila andozalarni unifikatsiyalash usullari. Andozalarga qoʻyiladigan texnik talablar. Ishchi andozalar tayyorlash. Andozalar gradatsiyasi. Andozalarni koʻpaytirishning asosiy prinsiplari va usullari. Koʻpaytirish oʻqlari va koʻpaytirish qiymatlari. Andozalarni koʻpaytirishning tipaviy sxemalari. Notipaviy konstruksiyaga mansub kiyim detallari andozalarini koʻpaytirish usullari. Murakkab bichimli kiyim andozalarni, hosila andozalarini va yordamchi andozalarini koʻpaytirish sxemalarini ishlab chiqish.
3	III. Laboratoriya mashgʻulotlar boʻyicha koʻrsatma va tavsiyalar Laboratoriy mashgʻulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi 1-MODUL 1. Kiyim tashqi shakli konstruksiyasini tahlili 2. Kiyim loyihalashda qoʻllaniladigan razmer oʻlchamlari tahlili 3. Kiyim tashqi va ichki razmerlari tahlili, qoʻshimchalarni hisoblash 4. Mulyaj usulini qoʻllab toʻgʻri yubka konstruksiyasini ishlab chiqish 5. Hisob usulini qoʻllab tipaviy qomatga toʻgʻri yubka asos konstruksiyasini qurish 6. Aniq qomatga mulyaj usulini qoʻllab ayollar koʻylagi konstruksiyasini ishlab chiqish 7. ЦОТШЛ (Янчевская) usuli boʻyicha tipaviy qomatga ayollar koʻylagi asos konstruksiyasini hisoblash va qurish 8. Ayollar koʻylagi maketini oʻlchamga tayyorlash va qomatda maket nuqsonlarini aniqlab bartaraf etishni oʻrganish 2-MODUL 1. Hisob usulida ayollar oʻtkazma yengli koʻylagi asos konstruksiyasini ishlab chiqish 2. Ayollar oʻtkazma yengli koʻylagi asos konstruksiyasini aniq qomatga moslash va nuqsonlarini aniqlab bartaraf etish 3. Oʻtkazma yeng bazaviy konstruksiyasini qurish. Yeng konstruksiya sifatini aniq qomatda baholash 4. Tipavoy qomat uchun erkaklar pidjagi bazali konstruksiyasi loyihasini hisoblash

	5. Tipavoy qomat uchun erkaklar pidjagi bazali konstruktsiyasini hisobi bo'yicha qurish (old va ort bo'lak) 6. Erkaklar pidjagi o'tqazma yengi konstruktsiyasini ishlab chiqish 3-MODUL 1. Erkaklar pidjagi model konstruktsiyasini maketda tekshirish 2. Erkaklar sarochkasi konstruktsiya chizmasi. 3. Model eskizi bo'yicha belli kiyimlarni konstruktiv modellash 4. Shim asos konstruktsiyasini qurish uni qomatga moslash. Nuqsonlarni aniqlash 5. Model eskizi bo'yicha ayollar kiyimini konstruktiv modellash 6. O'tkazma yenglarni konstruktiv modellash usullari 7. Yoqalar va bo'yin o'mizini bezash elementlarini konstruktsiyalarini ishlab chiqish 4-MODUL 1. Kapyushon konstruktsiyasini qurish 2. Ayollar ko'ylagi model konstruktsiyasini maketda tekshirish 3. Konstruktiv nuqsonlarni aniqlash 4. Reglan yeng bichimli kiyim model konstruktsiyasini ishlab chiqish 5. Yaxlit yeng bichimli kiyim model konstruktsiyasini ishlab chiqish 6. Muayyan shakldagi yeng bichimli kiyim model konstruktsiyasini ishlab chiqish Laboratoriya ishlarini tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar, keyslar orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar yechish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rgazmali qurollar tayyorlash, normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi.
4	IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar: Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1-MODUL 1. "Tikuv buyumlarini konstruktsiyalash" fanining maqsad va vazifalari, predmeti va mazmuni. 2. Zamonaviy kiyim assortimenti va tavsifi. Kiyim haqida umumiy ma'lumotlar. Kiyim funksiyasi. 3. Zamonaviy kiyim assortimenti va tasnifi. Mahsulot klassifikatorida tikuv buyumlarining tasnifi va kodlanishi. Sanoat manekenlari nomenklaturasi. 4. Sifat ko'rsatkichlari va kiyimga qo'yiladigan talablar. 5. Iste'molchi va texnik — iqtisodiy ko'rsatkichlar. Kiyimga qo'yiladigan talablar. 6. Axoli razmer tipologiyasi va antropologik razmer standartlari 7. Tananing o'lcham belgilarini olish uslubiyati. O'lchamlar xili va dasturi. O'lchash usullari. 8. Odam tanasining o'lchamli tavsifi. Yetakchi razmer o'lchovlari. 9. Zamonaviy razmerli tipologiya va katta yoshdagi aholiga mansub razmerli standartlar. Tipaviy qomatlar tizimini tuzish asoslari. 10. Kiyim razmerlarini belgilash. Bolalar razmerli tipologiyasini tuzilish xususiyatlari.

2-MODUL

1. Turli zamonaviy kiyimlar konstruktiv tuzilishi va tashqi shakli xarakteristikasi. Kiyim asosiy siluet va bichimlari. Kiyim konstruksiyasini aniqlovchi asosiy belgilar.
2. Kiyim razmerlari, shakli va konstruksiyasi. Kiyimdagi qo'shimchalar. "Odam - kiyim - muhit" sistemasi haqida tushuncha. Kiyimning shakli va ichki razmerlari.
3. Kiyim razmerlari, shakli va konstruksiyasi. Kiyimdagi qo'shimchalar. Kiyim shaklini hosil qilish vositalari. Bemalollik qo'shimchalari.
4. Tana o'lchamlarining dinamikada o'zgarishini e'tiborga Olgan holda minimal kerak bo'lgan qo'shimchalarni hisoblash prinsiplari. Kiyim paketiga, material qalinligiga qo'shimchalar. Kompozitsion qo'shimchalar.
5. Kiyim konstruksiyalash usullari. Kiyimlarni konstruksiyalash usullarining sinflanishi va ularning xarakteristikasi.
6. Bazis to'ri tushunchasi.
7. Turli kiyimlar uchun asos konstruksiyalar, ulami hisoblash usullari. YEMKO bo'yicha kiyimlarni konstruksiyalash xususiyatlari.
8. Turli bichimdagi kiyimlarni konstruksiyalash.
9. Kiyim balansi. Turli yoqalarning konstruksiyasini tuzish xususiyatlari.
10. O'tkazma yenglarni shakli, konstruksiyasi va konstruksiyalash usullari xarakteristikasi

3-MODUL

1. Bel kiyimlari va yelka kiyimlarini konstruksiyalash xususiyatlari. Bel kiyimlariga qo'yiladigan talablar.
2. **Bel kiyimlari uchun bazis to'rini qurish. To'g'ri yubka konstruksiyasini qurish.** Shim konstruksiyasini qurish usullari.
3. Yelka kiyimlarini konstruksiyalashda dastlabki ma'lumotlar. Ayollar va erkaklar kiyimlari uchun bazis to'rini qurish.
4. Kiyim nuqsonlari. Kiyim nuqsonlarining sinflanishi. Konstruktiv nuqsonlar.
5. Konstruktiv nuqsonlarning paydo bo'lish sabablari. Konstruktiv nuqsonlarni tuzatish usullari.
6. Kiyimlarini konstruktiv modellashning umumiy prinsiplari.
7. Konstruktiv modellash (KM) uchun dastlabki ma'lumotlarni tayyorlash. Bazali konstruksiyani tanlash mezonlari. Bazaviy konstruksiya (BK) dan foydalanib KM ning 4 xil asosiy turlari.
8. BK ni shaklini o'zgartirmay KM usullari. BK ni shaklini o'zgartirmay yubka va shimni KM, yelkali kiyimlarni KM elementlari; vitochka ko'chirish, taxlama va taqilmalar, bo'yin o'mizi shakli, cho'ntak, lifni qo'shimcha bo'laklash.

4-MODUL

1. BK ni shaklini o'zgartirib KM usullari. Kiyim detallarini konus va parallel kengaytirish. Turli shakldagi yubkalarni modellash.
2. O'tkazma yenglarni KM, yeng uchi kengligini o'zgartirish, yengni konus va parallel kengaytirish. Vitochkani qayta modellash.
3. Yelka qismini va yeng o'mizini modellash; kengaytirish; turli shakldagi yeng o'mizlarini (chuqur, tor, kengaygan, tirqishsimon kvadrat) modellash.
4. Turli shakldagi o'tkazma yenglarni modellash va uni modellashtirilgan o'miz bilan muvofiqlash.

	5. Turli shakl va modeldagi yoqalarini konstruksiyalash. Boyin omizini konstruktiv modellash. 6. Yoqalarga qo'yiladigan talablar. Yoqalarning sinflanishi. 7. Tik yoqa turlarini konstruksiyalash. Qaytarma yoqalarni qurish va KM. Ochiq bo'yin o'mizi uchun pidjak, shol va boshqa tipdagi yoqalarni qurish. 8. Bo'yin o'mizini bezash elementlarini (kokile, jabo, pelerina va h.k.) KM. Kapyushonni boyicha berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida topshirish. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
5	V. Kurs ishi bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: Kurs ishi uchun tavsiya etiladigan mavzular: 1. Erkaklar pidjagini konstruksiyasini qurish va modellashtirish 2. Ayollar paltosini konstruksiyasini qurish va modellashtirish 3. Erkaklar shimini konstruksiyasini qurish va modellashtirish 4. Ayollar yubkasini konstruksiyasini qurish va modellashtirish 5. Ayollar kurtkasini konstruksiyasini qurish va modellashtirish 6. Ayollar jaketini konstruksiyasini qurish va modellashtirish 7. Erkaklar kurtkasini konstruksiyasini qurish va modellashtirish 8. O'smir yoshdagi qizlar yoqali ko'ylagini, ayollar kurtkasini konstruksiyasini qurish va modellashtirish Kurs ishi fan mavzulariga taaluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. Kurs ishining hajmi, rasmiylashtirish shakli, baholash mezonlari ishchi fan dasturida va tegishli kafedra tomonidan belgilanadi.
6	VI. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar): Fanni o'zlashtirish natijasida talaba bilish kerak: - «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash» fanini o'zlashtirish jarayonida bakalavr - ommaviy tikiladigan kiyimlarni ishlab chiqarish xususiyatlari; kiyim sifati va unga qo'yiladigan talablar; - odam tanasini tavsiflaydigan razmerli tipologiya va razmerli standartlar. - kiyim shakli va o'lchamlari; - turli assortimentdagi kiyim konstruksiyasi; - konstruktiv modellash usullari; - fan va texnika yutuqlaridan foydalanib yangi kiyim modellarini sanoat sharoitida loyihalash yo'nalishlari haqida tasavvurga ega bo'lishi: - iste'molchi ishlab chiqarish talablarini hisobga olgan holda turli materiallardan yelkali va bel kiyim konstruksiyasini ishlab chiqishni: - turli kiyimlarning bichimi va tashqi shakliga konstruksiyasiga qo'yilgan talablarni; - odam qomatida kiyim sifatini baholash usullari mezonlari; - bazali va asos konstruksiyasini modifikatsiyalash orqali erkaklar va ayollar kiyimlarini konstruktiv modellash usullarini; - model eskizlarini tahlil qila olish va konstruktiv modellash bosqichlarining ketma-ketligini tuzish - konstruktiv modellashning ratsional usullaridan foydalannshni; - kiyim yangi modellarini BLAS sharoitida ishlab chiqarishga joriy etish uchun loyiha-

	konstruktorlik ishlarini bajarishning nazariy asoslarini <i>bilishi va ularda foydalana olishi</i>; - bo'yicha kiyim konstruksiyasini ishlab chiqish; - model eskizi bo'yicha kiyim konstruksiyasini ishlab chiqarishni; - figurada va manekenda kiyim maketini yaratish; - kiyimlarni sanoat usulida konstruksiyalash va loyixani tayyor na'muna darajasigacha yetkazish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi</i>; - kiyim nuqsonlarini aniqlash va ularni bartaraf qilish - kiyimni qomatda o'rnavini tekshirish <i>malakalariga ega bo'lishi kerak</i>. - yo'nalishga kirish, kasbiy mahorat talablari, o'quv tizimi, to'qimachilikni rivojlanishi, to'qimachilik sohalari, to'qimachilik ishlab chiqarish texnologiyalari, trikotajga oid tushunchalar, to'qimalarning tuzilishi, trikotaj-to'quv mashinalari va mahsulotning sifat nazorati <i>haqida tasavvurga ega bo'lishi</i>; - jahon hamda O'zbekiston to'qimachilik sanoatini, to'qimachilikka oid qonun hujjatlarini, to'qimachilikka oid asosiy tushunchalarni, mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasini, texnologik jarayonlarning xususiyatlarni <i>bilishi va ulardan foydalana olishi</i>; - talaba to'qimachilik sohasida hodisa va jarayonlarni tahlil qilish, texnologik muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish, zamonaviy to'qimachilik mashina va jihozlar bilan ishlash <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i>.
7	VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: - ma'ruzalar; - amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari; - interfaol keys-stadilar; - kichik guruhlarda ishlash; - java script; - taqdimotlar qilish; - jamoa bo'lib ishlash; - gamifikatsiya; - video materiallar tayyorlash; - individual ishlash; - virtual reallik; - blokcheyn texnologiyasi; - mobil platforma; - bulutli (cloud) texnologiyasi; - courselab - autoplay.
8	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, fan yuzasidan mustaqil fikrlay olish, mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish, nazorat turlari bo'yicha berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida topshirish
9	Foydalanilgan adabiyotlar Asosiy adabiyotlar 1. J.S.Ergashev., N.N.Nabidjanova., D.X.Rayimberdiyeva., R.A.Ergasheva "Tikuv buyumlarini konstruksiyalash" Namangan-2022 yil. 130 bet.

	2. Kamilova X.X., Xamrayeva N.K. «Tikuv buyumlarini konstruksiyalash» Darslik –T.: «Cho‘lpon», 2011 y-400b 3. Коблякова Е.Б. Конструирование одежды с элементами САПР Учебник.-М., «Легпромбытиздат», 1988г-464 с. 4. Мартынова А.И., Андреева Е.Г. «Конструктивное моделирование одежды». М., 2002-310 с 5. Мюллер и сын. Сборник. Основные конструкции 2008 г. 6. Лин Жак. Техника кроя. 800 рисунков моделей, детальных чертежей и наглядных схем. Рипол Классик, 2008 г. 9. Делаем выкройки на любую фигуру. Более 300 самых модных моделей/сост. И.А.Зайцева-М.: РИПОЛ классик, 2007. – 448 с. : ил. 8. Ege University information package https://ebp.ege.edu.tr/DereceProgramlari/Detay/1/45/2640/932001?lang=en-US Qo‘shimcha adabiyotlar. 9. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. “O‘zbekiston” 2017 yil, 488 bet. 10. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. “O‘zbekiston” 2016 yil, 56 bet. 11. Янчевская Е.А. Аёллар уст кийимини кострукциялаш. Т.: «Ўқитувчи» 1998 йил-320 б 12. Амирова Э., Сакулина О. И др. Конструирование одеы. Учебник «Академия», 2012 г. Axborot manbaalari 13. www.liveinternet.ru 14. www.book.style.ru 15. www.ispring.suite.ru 16. http://www.liveinternet.ru/users/ggulsiay/post213500916 17. http://modanews.ru/books
10	Fanning o‘quv dasturi Namangan to‘qimachilik sanoati instituti Kengashining 2023 yil “__” _____ “__”-sonli bayonnomasi bilan ma`qullangan.
11	Fan moduli uchun ma’sullar Rayimberdiyeva Dilrabo Xabibillayevna - NTSI “Yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash va texnologiyasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi Taqrizchilar: Maqsudov Nabijon Bahodirovich - Yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash va texnologiyasi” kafedrasi mudiri, t.f.n., dotsent Muxitdinova Jamilaxon Rasulovna – Namangan Davlat universiteti, san’atshunoslik fakulteti, texnologik ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi